

Maishiy qattiq chiqindilarni maxsus poligonga tashib chiqarish xizmatini ko'rsatish to'g'risida

SHARTNOMA № 1

“ 11” yanvar 2022 yil

Jalakuduk tumani

Amaldagi Nizomiga asoslanib faoliyat olib borayotgan Jalakuduk tumani filiali “Toza Xudud” DUK nomidan ish yurituvchi korxonada direktori E.Turdiyev (bundan buyon matnda “Bajaruvchi” deb yuritiladi) bir tomondan, Jalakuduk tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi nomidan Nizom asosida ish yurituvchi korxonada raxbari M.Ismoilova (bundan buyon matnda “Buyurtmachi” deb nomlanadi) ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagi mazmunda tuzdilar.

I SHARTNOMANING MAZMUNI

1.1 “Buyurtmachi” ning buyurtmasiga ko'ra, uning xududidagi chiqindixonadan kattiq maishiy chiqindilarni maxsus poligonga tashib chiqarish uchun “Bajaruvchiga” ga buyurtma beradi. “Bajaruvchi” tomonidan buyurtma asosida qattiq, suyuq chiqindilarni olib chiqib tashlash majburiyati olinadi. “Buyurtmachi” bilan “Bajaruvchi” o'rtasida tuzilgan mazkur shartnomaga ko'ra, bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni tegishli me'yoriy xujjatlar va normativlar asosida ko'rsatilgan xizmat uchun “Buyurtmachi” xaq to'lash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMA BAXOSI VA O'ZARO XISOB-KITOB TARTIBI

№	Bajariladigan ishlar xakida	Ulchov birligi	Mikdori	Konteyner va Konteynersiz	Narxi	Summa
1	MTTlardagi maishiy qattiq chiqindilarni tashish xizmati	M3	278	Konteynersiz	36600	10174800
	Jami:					10174800

Shartnomaning baxosi (shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan “Sanitariya qoidalari va meyorlari”ga ko'ra belgilanib shartnoma ilova qilinadi) xar bir mZ uchun 36600 (QQS bilan) so'mni tashkil qiladi va shartnomaning umumiy baxosi 10174800 (un million bir yuz yetmish turt ming sakkiz yuz sum) so'mni tashkil etadi.

2.1. Chiqindixonadan chiqindilarni tashib chiqarish yuzasidan ko'rsatilgan xizmatlar xaqi belgilangan tartibda tasdiqlangan “Sanitariya qoidalari va meyorlari”ga asosan xisoblanadi.

2.2. “Buyurtmachi” shartnomadagi umumiy summaning 30% ni oldindan to'lovni amalga oshiradi.

2.3. Tomonlar muntazam ravishda debitorlik va kreditorlik qarzlari yuzasidan o'zaro xisob-kitoblarni taxlil qilib, aniqlangan qarzdorlikni undirish choralarni ko'rib boradi.

2.4. “Bajaruvchi” “Buyurtmachi” bilan kelishgan xolda belgilangan jadval asosida maxsus chiqindi tashish avtomashinasi o'z muddatida yuborilishini ta'minlaydi.

3. TOMONLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1 “Buyurtmachi” ning xuquq va majburiyatlari:

3.1.1 Chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi belgilangan sanitariya normalari va qoidalari ekologik normativlarga rioya etilishini ta'minlaydi.

3.1.2 Chiqindilarni ruxsat etilmagan joylarda yoki ob'ektlarda saqlanishi, qayta ishlanishi, utilizatsiya qilinishi va ko'mib tashlanishiga yo'l qo'ymaslik choralarni ko'radi.

3.1.3. Chiqindilar joylashtirilgan ob'ektlarning sanitariya va ekologiya xolati ustidan nazorat olib boradi.

3.1.4. O'zi joylashgan xududidagi chiqindi to'kish uchun belgilangan joy (chiqindi tashlash shaxobchasi) ga atrofiuagi maishiy chiqindilarni o'zini kuchi bilan muntazam ravishda tashib keltirishni ta'minlaydi.

3.1.5 Chiqindilarni yuklash va tashish “Buyurtmachi” tomonidan amalga oshirilsa 1 MZ chikindi uchun tarif summasini 75% mikdorida “Bajaruvchi”ning xisob rakamiga utkazib beradi.

3.1.6. Qurilish natijasida va yirik xajmda yig'ilgan chiqindilarni o'z xududidan tashib ketish uchun aloxida xaq evaziga, shartnomaga Qo'shimcha kelishuv kiritib, xisob kitob ishlarini amalga oshiradi.

3.1.7. Barcha turdagi chiqindilarni o'z vaqtida olib chiqib ketilishini doimiy nazorat qiladi. Chiqindilarni tashish bo'yicha tasdiqlangan yo'nalish jadvali buzilgan xollarda “Bajaruvchi” ga zudlik bilan yozma xabar beradi.

3.1.8. Ko'rsatilgan xizmatlar xamda bajarilgan ishlar uchun shartnomada belgilangan tartibda, muddatda va miqdorida xizmat ko'rsatuvchiga oldindan bo'nak (avans) to'lovlarini amalga oshiradi xamda yakuniy xisob-kitoblarni amalga oshiradi.

3.2. “Bajaruvchi”ning xuquq va majburiyatlari.

3.2.1. “Bajaruvchi” maishiy chiqindilarni o'z transporti va kuchi bilan chiqindi tashlash shaxobchalaridan tashib chiqarish va maxsus chiqindixonalariga joylashtiradi. Chiqindilarni tashish bo'yicha tasdiqlangan yo'nalish jadvali o'zgargan xollarda “Buyurtmachi” ga 24 soat avval xabar beradi.

3.2.2. Chiqindilarni o'z vaqtida tashib chiqarilishini ta'minlaydi.

3.2.3. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun shartnomada belgilangan tartibda bo'nak (avans) pullarini qabul qiladi va yakuniy xisob-kitoblarni amalga oshiradi.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

4.1 Tomonlardan biri shartnoma shartlari va majburiyatlarini o'z muddatida yoki lozim darajada bajarmasa, bajarmagan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zarani to'laydi. "Bajaruvchi" "Buyurtmachi" ga shartnoma majburiyatlari bajarmagan qismining 0.5% miqdorida penya to'laydi, To'lanadigan penya miqdori shartnoma umumiy summasining 50% ortmasligi kerak.

4.2 Bajarilgan ishlar uchun "Buyurtmachi" tomonidan o'z vaqtida xzaq to'lanmasa xar bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4% miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penya penyalarning umumiy summasi kechiktirilgan to'lovlarning 50% ortmasligi kerak.

5. NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI.

5.1. Tomonlar o'rtasida vujudga keladigan baxslar kelishuv asosida xal etiladi. Agar kelishuvga erisholmagan taqdirda xuquqni muxofaza qilish organlari yoki Iqtisodiy sud orqali xal etiladi.

6. KORRUPSIYAGA QARSHI OGOHLANTIRISH

6.1. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi qonunchilikka rioya qilishni, ular, ularning xodimlari, afillangan shaxslari, benefisiarlari va biznes hamkorlari, vositachilar, pudratchilar yoki ushbu shartnomani bajarish uchun birlashtirilgan vakillar tomonidan poraxo'rlik, pora berish yoki vositachilik qilish, davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xodimini korrupsiya xarakteriga undash va qonunchilikda nazarda tutilgan korrupsiya sifatida baholanadigan boshqa harakatlarni amalga oshirmasligini ta'minlaydilar.

6.2. Tomonlar bir birlariga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali, asossiz ustunlik yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish uchun pul mablag'i, qimmatbaxo buyumlar, mulk va mulkiy xuquqlar yoki boshqa turdagi moddiy manfaatlarni va'da berish, berish, iltimos qilish, talab qilish, olishga rozi bo'lish, olish, mansabdor shaxslarning ta'sir o'tkazishiga erishish, shu jumladan Tomonlar munosabatlarining oshkoralik tamoyillariga mos kelmaydigan boshqa xarakterlardan tiyladilar.

6.3. Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'yilmasligi bo'yicha tegishli chora ko'rishni kafolatlaydi. Tomonlar, ularning xodimlari, kafillangan shaxslari, benefisiarlari va biznes hamkorlari, vositachilar, pudratchilar yoki ushbu shartnomani bajarish uchun birlashtirilgan vakillaridan yuqorida ta'kidlangan noqonuniy xatti-xarakterlar gumoni bo'lsa yoki ushbu xarakterlar amalga oshirilgan taqdirda, zudlik bilan yozma shaklda (shu jumladan elektron pochta orqali) bir-birlariga xabar berish majburiyatini oladilar.

7. QO'SHIMCHA SHARTLAR.

7.1. "Bajaruvchi" transport-texnika va ish kuchi xarajatlarini YOMM (yonilg'i moylash maxsulotlari) narxi o'zagarishi munosabati bilan belgilangan tartibda "Buyurtmachi" yozma ravishda oldindan ogoxlantirilib, ko'rsatilayotgan xizmatlar qiymatini o'zgartirishga xaqlidir.

8. FORS-MAJOR XOLATLARI.

8.1. Xar bir taraf ikkinchi taraf oldidan o'ziga bog'liq bo'lmagan yengib bo'lmay kuch mavjud bo'lgan xolda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar bo'yicha javobgar emas.

8.2. Xukumatning vakolatli organlari yoki boshqa tegishli idoraning bergan guvoxnamasi ana shunday fors-major xolatini tasdiqlovchi xujjat xisoblanadi.

9. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI.

9.1. Mazkur shartnoma 2022-yil 31-dekabrgacha amal qilinadi.

9.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib taraflar imzolaganda so'ng va belgilangan tartibda G'aznachilik tizimidan ro'yxatga olingandan keyin kuchga kiradi va xar-bir tomondan bir nusxadan saqlanadi.

10. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI:

«Bajaruvchi»

Nomi «Toza xudud» DUK Jalakuduk tumani filiali

Agro Bank Jalakuduk tumani filiali

x/r 20210000609781763009

MFO: 00040

304937910

Raxbar:

E. Turdiyev

«Buyurtmachi»

Nomi: Jalakuduk tumani MTB

Manzili: Jalakuduk tumani Tuyalas kocha

SHXV: 100022860032117091100251081

STIR: 305156434, XXTUT: 92400

G'azna x/r: 2340 2000 3001 0000 1010

MB BBXKKM Toshkent shaxar

MFO: 00014, STIR: 201122919

Raxbar:

M. Ismoilova

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

№ BQ86245775

1. Loyihaning turi
Shartnoma

2. Loyihaning nomi
Xizmat ko'rsatish shartnomasi


"Toza Xudud" DUK Jalaquduq tumani filiali va Jalaquduq tuman maktabgacha ta'lim bo'limi o'rtasida maishiy qattiq chiqindilarni maxsus poligonga tashib chiqarishi xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnomasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot
Jalaquduq tuman maktabgacha ta'lim bo'limi 22.01.2022

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

2022-yil 24-yanvar

Yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti



B.Axmadjonov